
Senat raisi Farg'ona shahriga tashrif buyurdi

Tanzila Narbaevaning davlat idoralari xizmatchilari, mahalla tizimi mutasaddilari, nuroniylar, yoshlar, xotin-qizlar va keng jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan muloqotlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, konstitutsion islohotlar muhokama etildi.

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov Senat raisiga shahrimizda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hamda iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan ishlar xususida ma'lumotlar berdi.

Shu kuni mehmonlar shahrimizdagi "Shodiyona" mahalla fuqarolar yig'inidagi xonadonlarga ham tashrif buyurishdi. Mazkur xonadonlar a'zolari bilan suhbatlashildi, ularga esdalik sovg'alari topshirildi.

2023-04-05 11:07:56